



Lingvo
Science.uz

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 2 | SON 2

2026



SAYT: <https://Lingvoscience.uz>

LINGVOSCIENCES.UZ

2-jild 2-son 2026-yil

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

**CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND
CULTURAL STUDIES**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И
КУЛЬТУРОЛОГИИ**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail, zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

“Lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarining dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektr
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 2-son (fevral, 2026). - 25 bet.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraximov Abror

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI..... 5-10

Xudoyorov Shodiyor

OLIY TA'LIMDA "PLASTIK ANATOMIYA" FANINING O'QUV-USLUBIY ASOSLARI 11-16

Toshmatov Boboxon

O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING
O'RNI 17-20

Jo'rayeva Sohibjamol, Hayitova Zilola

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI 21-24

Article / Original Paper

O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING O'RNI

Toshmatov Boboxon Egamshukurovich

Nizomiy nomidagi O'zMPU,
Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi,
psixol.f.f.d.(PhD)

Tel:+998909243615

Email: bobohonjontoshmatov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning uslubiy jihatdan tayyorgarliklari masalalari tahlil etilgan. Asosan muammoli ta'limni tadbiq etilishi va unga qo'yiladigan talablar hamda natijalar tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, muammoli ta'lim, talaba, pedagogik texnologiya, usul.

THE ROLE OF METHODOLOGICAL TRAINING OF TEACHERS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN UZBEKISTAN

Toshmatov Bobokhon Egamshukurovich

Nizami Uzbek State University of Psychology,
Senior Lecturer, Department of Psychology,
PhD in Psychology

Annotatsiya. The article analyzes the issues of methodological preparation of pedagogues to improve the quality of education today. Mainly, the application of problem-based education and its requirements and results are described.

Kalit so'zlar: pedagogue, problem-based education, student, pedagogical technology, method.

DOI: <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I2Y2026N03>

Bugungi jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, ta'limdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun pedagogning an'anaviy usullarga tayanib dars o'tishi, o'quvchi - talabalarni boshqarishi yetarli emas. Pedagogning o'zi bu fanlarni yaxshi bilishi, dars berish metodlarini mahorat bilan qo'llay olishi, barcha pedagogik qobiliyatlarni namoyon eta olishi talab etiladi. Vatanning ravnaqi va uning kelajagi barkamol avlod faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lganligi tufayli bo'lg'usi mutaxassislarni ertangi kun talabiga mos kadr qilib tayyorlash dolzarb vazifadir.

Hozirgi ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitish sanaladi. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlari bilan uzviy bog'liqdir. Muammoli o'qitish texnologiyasi samaradorligining ahamiyati keng bo'lib, u qator vazifalar bilan belgilanadi. Demak, uning asosiy vazifasi faol bo'lish, jarayonga undash va

tafakkurda tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatin tibora o'sib boradi. Bugungi ta'lim tizimiga keng qo'llashga ehtiyoj ortib borayotgan mazkur texnologiya va uning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarining o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy- tadqiqot usullarini vujudga keltiradi. Muammoli o'qitishning asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolikka tayanadi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning fikrlashicha, muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy xolati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil eiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lavermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. (yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi). Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun akliy va amaliy harakat usullari yotadi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilingan talab o'ekt (tushuncha, fakt)ning avval va ayni vaqtda ma'lum vazifa, masala bo'yicha ichki yashirin aloqalarni anglab yetadi. Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammo, ya'ni nima ma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan belgilangan. Muammoli vaziyatning mazmunini tahlil qilinganda, u dastavval talabalarining mustaqil ahloqiy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarini tushunishga, unga qarshi kurashish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'yinda izchillik yorqin ko'rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi. Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumki, topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallagan bilim va ko'nikmalarga asoslanib kutilgan natija yoki yechish yo'lini izlashga tushadi. O'quv muammosini muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning quyilishi;
- talabalarda, noma'lumni topish yo'lida izlanishlari amalga oshirish uchun zarur bulgan muayyan bilim zahirasining bo'lishi.

Endilikdagi asosiy vazifamiz mustaqillikni mustaxkamlash, Vatanimizning porloq istiqbolini yaratish, ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olish, xalqimizning turmushini, madaniyatini yuksaltirishdan iborat. Kelajakdagi faravonligimiz manbai esa mehnatda, ilmda, faxm-farosatlilikda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari talaba yoshlar tarbiyasiga, ularning ilm olishi, aqlli va ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishiga katta ahamiyat bermoqda.

Bugungi kunda metodlarni samarali qo'llashning muhim mezonlaridan biri muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni kun tartibiga kuya bilishdir. Mutaxassislarning fikricha, muammoli o'qitish talabani mustaqilligini, fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi. Muammoli o'qitish talabalarni faol bilish jarayoniga undab, tafakkurni ilmiy tadqiqotga yo'naltiradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiy tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar bilganlari bilan yangi faktlar, xodisalar o'rtasida xamda mukobil tanlov zaruriyati vujudga kelishi natijasida qaror qabul qilishning qiyinchiligi oqibatida kelib chiqadigan vaziyatdir. Muammoli vaziyatning vujudga kelish talabalarining aqlini charhlaydi. Muammoni kelib chiqish sabablarini yechimini topishga undaydi. Shuning uchun ham hoh ma'ruza, hoh amaliy mashg'ulot, seminar bo'lsin o'qituvchining muammo qo'yishi, yoki muammoli vaziyat vujudga keltirishi katta ahamiyatga ega.

Muammolar qo'yilishi jihatidan qo'yidagi darajalarga bo'linadi:

1. Muammoni o'qituvchining o'zi qo'yadi, uni shakllantiradi, talabalarni mustaqil ravishda yechimini topishga, yechish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

2. O'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechimini izlaydilar.

3. O'qituvchi ma'lum bir muammoni ko'rsatmaydi, balki unga talabalarni ro'baru qiladi, ularni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

4. Talabalarining o'zi mustaqil ravishda muammoni anglaydilar, uni shakllantiradilar va yechimini topishga xarakat qiladilar.

- Muammoli o'qitish ta'lim oluvchilar extiyojlarini qondirish va faolligini oshirishga yo'naltirilishi;

- taqdim etilgan muammoning ta'lim oluvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi.

Bular:

- qo'yilgan muammoning muhimligi;

- muammo iloji boricha real hayotdan olinishi;-ta'lim oluvchilar uchun muammo ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi;

- ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi;

- muammoga aloqador axborotlar;

- muammoni yechish.

Mazkur metodning o'ziga xos jihati talabalar oldiga muammolar qo'yishdir. Muammoli ma'ruza savol, ya'ni muammo qo'yish orqali boshlanadi, ma'ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo'llari ko'rsatiladi. Muammo o'quv materialining aniq mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o'qitishga qator talabalar qo'yiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi

o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda. Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda. Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1) Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish.

2) Bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish.

3) O'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish.

4) Talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishigao'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllari (qo'shimcha va alternativ) ning aprobatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi keng ko'lamli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, o'quv muassasalari, yo'nalishlarida ma'lum bo'lgan narsalarni qayta ochishga vaqtini sarflashi kerak emas. Bugungi kunda savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarining hammasini o'rganish lozim.

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Ilmiy aspect - pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2. Protsessual-tavsifiy aspekt - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3. Protsessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarning amal qilish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta'limning samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi qo'llanilmoqda. Zamonaviy mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarining barchasini, shu jumladan pedagogik komponentlarini chuqur o'rganib, tahlil qilish lozim. Pedagogik texnologiya ko'proq sifatli natijaga erishishga qaratilgan, u asosan pedagogning mahoratiga, pedagogik texnologiya usullaridan mohirona foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog'liqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma.- T.: "Iqtisodiyot" 2019.
2. Abdullaeva R.M., Karimova Q.A. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot: iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash istiqbollari/ Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent. 2019. 409 b.

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

2-jild 2-son 2026-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).